

1-renessans

O`zbekiston ilm ma`rifat o`chog`I, ziyo markazi bo`lgan qutlug` zamin.Buyuk ipak yo`lining chorraxasida joylashgan vatanimiz qadimdan jahon sivilizasiyasi markazi, ilm-ma`rifat o`chog`I bo`lib,dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga munosib hissa qo`shib kelgan.Zaminimiz ikki buyuk Uyg`onishga beshik bo`lgani shunday deyishimizga asos bo`la oladi.

Barcha sharq va g`arb olimlarining e`tirof qilishlaricha birinchi renessans yevropada 15-17 asrlar orasida yuzaga kelgan renessansdan bir necha yuz yil avval, ya`ni 9-11chi asrlarda O`zbekiston tuprog`ida ro`y bergan, ushbu ulkan yuksalish sodir bo`lishining o`z tarixiy sabablari va asosi bor. Mazkur davrda davlat taraqqiyoti uchun juda muhim bo`lgan yangi islohatlar va qonunlar joriy qilindi. Yer-suv qo`shnichilik munosabatlardan soliqlargacha tub yangilanishlar sodir bo`ldi. Davlat yuritishdagi va siyosatdagi yangliklar ilm-fan kishilarini ezgu-g`oyalar tevaragida birlashtirdi. Turli tuman fanlarga, ayniqsa matematika, astronomiya, kimyo, tibbiyat, huquq, giyadeziyaga, qiziqish kuchaydi va dunyo tuzilish haqidagi zamonaviy nazariyalarga aynan o`sha davrda asos solindi. Muhammad muso Al-Xorazmiy, Abu Rayhon beruniy, Abu ali ibn Sino, Ahmad al-Farg`oniy, Abu nasr Farobi, Yusuf Xos Xo`jib, Mahmud Qoshg`ariy, Mahmud Zamahshariy, imom Buxoriy, imom Termiziy, imom Motduridiy, Abun Muniy nasabiy buyuk ajdodlarimiz serqirra istedod sohiblari bo`lishlari bilan bir qatorda o`z fanlari bo`yicha butun olamga ustozlik maqomiga erishdilar.

Mazkur davr dunyo taraqqiyotining yuksalish tamoayillarini belgilab berdi desak mubolag`a bo`lmaydi. Buning yorqin isboti Xorazmda barpo etilgan Ma`mun akademiyasidir. Daho mutaffakkirlarni o`z bag`riga to`plagan bu oliy dargoh nafaqat o`z mintaqasi balki butun dunyo uchun akselerator vazifasini o`tagan, siferik tiriginametirya o`nli raqamlarining tizimli qo`llanilishi tirginametiriyada funkusiya tushunchasini paydo bo`lishi, jug`rofiy kordinatalarning aniq ifodalanishi, yer sayyorasining siferik globusi, qattiq va suyuq moddalarning solishtirma og`irligi, minerallar tasnifi, quruqlik tarkibiy jismlarning harakati va qatlamlar hosil bo`lishi dengiz va materiklarning joylashuvi, tibbiy va farmaseftik bilimlarning bir tizimga solinishi, tashxislash va davolashning yangi usullari madallar taransmutatsiyasi imkonlarning tahlili bular yurtimizda 9-11 asrlarda yashab ijod qilgan buyuk ajdodlarimizning tabiiy aniq fanlarda amalga oshirgan innavotsiyon g`oyalarning ba`zilari xolos.

Muso Al Xorazmiy Xorazm viloyatining Xiva shahrida tug`ilgan. Algebra faniga asos slogan Al-jabr val muqobala kitobini yozgan. O`nlik sanoq sistemasida yozish va ular ustida arifmetik amallarni bajarish qoidalari Xorazmiyning arifmetika asari tufayli joriy bo`lgan. Xorazmiy zichi o`rta asrlar fanidagi astronomiyaga oid dastlabki asar bo`lib,

unda turli taqvimlar, xronologiya, quyosh, oy, sayyoralarning harakati, burchlar va boshqalar haqida ma`lumotlar keltirilgan. Zichda birinchi marta tangens funksiyasi kiritilgan, Quyosh soati tekislikda soat yasash kitobida gorizontal tekislikda quyosh soati yasash, yani soyasi mil vazifasini o`tovchi plastinka, gnamo`n o`rnatish va soat shkalasini chizish qoidasi gnamo`n soyasining shkaladagi holatiga qarab, vaqtini aniqlash usuli bayon qilinadi. Yer sharida 1 gradus meridian yoyning uzunligi, 111,8 km ga tengligini isbotlab bergen.

Abu rayhon Beruniy Xorazm viloyatining qiyot qishlog`ida tug`ilgan. Beruniy yozib qoldirgan 150 ga yaqin asarlari bilan Astronomiya, Astrologiya, Matematika, Geodiziya, Geologiya, Mineralogiya, Geografiya, Arifmetika, tabobat, farmakoknoziya, Tarix Shuningdek filologiya va boshqa fanlarning rivojiga noyob xissa qo`sha oldi. Geodeziya asarida 990-yil Kat shahrinng Geografik kengligini aniqlagan. Abu rayhon Beruniy yerning kattaligini o`lchashda yangi usul qo`llab, bir gradus meridian yoyning uzunligi 111,16 km ekanligini hisoblab chiqargan. Beruniy yerning radiusini 6315,886 km ekanligini aniq o`lchab bergen. U yerning meridian aylanasi uzunligini 40183 km ekanligini hisoblab chiqargan. Hindiston yarim orolidagi xalqlar, Urf odatlar va dirlar to`g`risida Ilmiy asar yozgan. Bunda beruniy hozirgi Amerka qitasi mavjudligini Kolumbdan bir necha asr avval ilmiy asoslab bergen.

Abu Ali ibn Sino Buxoro viloyatining Afshona qishlog`ida tug`ilgan. Dunyoda Avitsenna nomi bilan mashhur. Tib qonunlari, Kitob ash-shifo, tibbiy o`g`itlar asari barcha zomonlar uchun tibbiyat nomining asosi bo`lib kelmoqda. Olimning falsaviy qarashlari, ishoralar va tanbehlar, sharhchilar falsafasi, mantiq va falsafaning ishoralari, donishnoma asarlari uning o`z zamonida Shayx ar-rais deb nomlanishiga sabab bo`lgan.

Ahmad al-Farg`oniy yerning shar shaklida ekanligini ilmiy isbotlagan. Yilning eng uzun va qisqa kuni 22-iyun va 23-dekabr mavjudligini matematik jihatdan isbotlagan. Quyoshda dog` borligini hamda 832 yilda quyosh tutilishi bo`lishini oldindan belgilab bergen. Nil daryosidagi suv sathini o`lchaydigan inshoat Nilometrni barpo etgan. Ilmiy texnik va memoriy jihatdan g`oyat ulug`vor bu qurilma Nil daryosining sayyolud-ul road mavzesida hozirga qadar saqlanib qolgan.

Abu Nasr Farobi – jahon madaniyatiga katta hissa qo`shgan O`rta Osiyolik mashhur faylasuf, mutaffakkir alloma. Farobi o`z zamonasi ilmlarining barcha sohasini mukammal bilganligi va bu ilmlar rivojiga kata hissa qo`shganligi, yunon falsafasini sharhlab, dunyoga keng tanitganligi tufayli sharq mamlakatlarida ulug`lanib, “Al-muallim as-soniy” (ikkinchi muallim, Aristoteldan keyin) “Sharq Arastusi” deb yuritilgan. Ma`lumotlarga qaraganda u 70 dan tilni bilgan. O`rta asr davri tabiiy-ilmiy va ijtimoiy bilimlarining qariyib barcha sohalarida 160 dan ortiq asar yaratgan. U turli bilimlarning nazariy tomonlari, falsafiy mazmuni bilan ko`proq qiziqgan. Uning “Fozil odamlar shahri” asari jamiyatning kelib chiqishi, maqsad va vazifalari o`z ichiga olgan davlatni boshqarish, ta`lim tarbiya, axloq, marifat, diniy etiqod, urush va yarash, mehnat va boshqa ijtimoiy masalalarni qamrab olgan buyuk asardir.

O'rni kelganida shuni ham ta`kidlab o`tish kerakki, Ilm fan osmonida yulduzday yaraqlab turgan bu allomalar atrofida va ulardan keyin yana yuzlab, safdoshlari, shogirtlari, davomchilari yurtimiz ilm-fan mevalarini jahonning ilg`or ommasiga yetkazib berishda katta xizmatlar ko`rsatishdi va mamlakat shon shuhratini, taffakkur qudratini, uzoq o`lkalarga qadar yoyishdi.

2-renessans nafaqat mintaqamizda balki juda katta jug`rofiy hududlarda siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy islohatlarni amalga oshirgan ulug` bobomiz Sohibqiron Amir Temur bilan chambarchas bog`liq. U zot tufayli qudratli markaziy boshqaruvga asoslangan davlat va yangi madaniy-ilmiy yuksalish uchun qulay vaziyat yuzaga keldi. Amir Temur o`z bepayon sultanatining katta shaharlariga turli hududlardagi istedodli olimlar, shoirlar, hunarmandlar, memorlarni jamladi va ilm fan taraqqiyoti uchun kerakli barcha shart shaoitlarni yaratib berdi. Bunday oqilona siyosat mamlakatning ilmiy va madaniy qudratini kuchaytirdi. Ikkinci renessans davri islom madaniyatining oltin asri deb atalashi bilan birga fazo ilmi va matematika fanlarining rivojlanishi bilan yurtimizda ikkinchi uyg`onish ya`ni ikkinchi renassans davrini boshlab berdi. Bu davrda Imom Buxoriy ,Imom Termiziyy,Imom Motrudiyy,Burxoniddin Marg`inoniy,Abul Muin Nasafiy kabi ulug` ulamolar,Qozizoda Rumiyy,Mirzo Ulug`bek,G`iyosiddin Koshiy,Ali Qushchi kabi Benazir olimlar,Lutfiy,Sakkokiy,Xofiz Xorazmiy,Abdurahmon Jomiy,Alisher Navoiy,Bobur mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar maydonga chiqli. Sharofiddin Ali Yazdiy,Mirhond,Xondamir kabi tarixchilar ,Mahmud Muzahhib, Kamoliddin Bexzod singari musavvirlar ko`plab xattot va sozandalar, musiqashunos va me`mirlarning shuxrati dunyoga yoyildi. Birinchi renessans davrida bo`lgani kabi bu davrda ham ilm o`rganishni istovchilar butun dunyodan oqib kela boshladilar.

Mirzo Ulug`bek Samarqand shaxrida tug`ilgan.Ulug`bek bir yilning 365 kun, 5 soat, 49 daqiqa va 15 soniya deb belgilagan. Ulug`bek ushbu hisobida faqatgina 25 soniya xato qilgan ekan.Undan boshqa Ulug`bek yer yuzini o`rtalik kajlini 23,52 daraja deb belgilagan. Va bu yuz yillar davomida eng to`g`ri va aniq o`lcham deb topilgan.1428 yilda Ulug`bek Abservatoriysi qurban.Uning asosiy asbobi 40 metr radiusli devor kvandratning dunyoda analogi bo`lmagan.Ziji jadidi Ko`ragoniy astronomiyaga oid ,Bir daraja sinusini aniqlash haqida risolasi matematikaga oid, Risolayi Ulug`bek Yulduzlarga bag`ishlangan , To`rt ulus tarixi tarixga oid asarlari muallifi.Shonli tariximizdagи har ikkala uy`gonish davrida ham eng muhim jihat davlatning,davlat rahbarining yuksak e`tibori bo`lib kelgan.

Ali Qushchi (taxallusi; asl ismi-sharifi **Mavlono Alouddin Ali ibn Muhammad Qushchi Samarqandiy**) (1403, Samarqand – tug`ilgan.**Ali Qushchi falakiyotshunos** va riyoziyotchi olim, Ulug`bek ilmiy maktabining atoqli namoyandalaridan biri, uning yaqin shogirdi. Ali Qushchi boshlang`ich Ulug`bek rasadxonasini qurish ishlarida ham faol qatnashadi. Shu davrda "Hisob risolasi" va "Astronomiya risolasi" asarlarini yozadi va ilm ahli orasida katta obro` qozonadi shu bilan birga "Matematika va astronomik jug`rofiya" asarini yozadi. Ali

Qushchidan 20 dan ortiq ilmiy asar meros bo‘lib qolgan. U ko‘p olimlarning asarlariga sharhlar yozgan. Ayniqsa Ali Qushchining „Ulug‘bek zijiha sharh“ asari astronomiya tarixida katta ahamiyatga ega. U „Zij“ni geometrik teoremlar yordamida sharhlaydi. Ali Qushchi asarlarining ko‘philigi Turkiyadagi Aya Sofiya madrasasi kutubxonasida saqlanib qolgan. Ali Qushchi 16-17-asrlarda O‘rta va Yaqin Sharq mamlakatlarida riyoziyot fani rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

Nizomiddin Mir Alisher Navoiy-mutafakkir va davlat arbobi, o‘zbek adabiy tilining asoschisi, g’azal mulkining sultonı. 1441-yil Hirotda tug’ilgan.

Shoir butun hayoti davomida ijodni siyosat bilan birlashtirgan. Davlat arbobi sifatida mamlakat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy takomillashishiga katta hissa qo‘shtigan, ilm-fan, san’at rivojiga homiylik qilgan. Mutafakkir o‘z she’riyati orqali o‘zbek adabiyotini yangi darajaga olib chiqdi. U shoh asari “Xamsa” orqali turkiy tilning betakror jozibasini isbotlab berdi. Shoir o‘z ijodiy faoliyatida lirikasidan tashqari adabiyotshunoslik, tilshunoslik, tarix, musiqa va diniy ta’limotga oid ilmiy asarlar yaratgan, fors va turkiy tilda ijod qilib, sakkizta devon tartib bergen. Alisher Navoiy jahon adabiyotida o‘z o’rniga ega ijodkor sanaladi. Dunyoning eng rivojlangan davlatlarida allomaga haykal o’rnatilganligi unga bo’lgan ehtiromning yorqin namunasidir.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483 yilning 14 fevralida Andijonda dunyoga keladi. Zahiriddin Muhammad Bobur o‘rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she’riyatida o‘ziga xos o‘rin egallagan adib, shoir, olim bo‘lish bilan birga yirik davlat arbobi va sarkarda hamdir. Bobur keng dunyoqarashi va mukammal aql-zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida davlat arbobi sifatida nomi qolgan bo‘lsa, serjilo o‘zbek tilida yozilgan “Boburnoma” asari bilan jahonning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan ham joy oldi. Uning nafis g’azal va ruboiyları turkiy she’riyatining eng nodir durdonalari bo‘lib, “Mubayyin” (“Bayon etilgan”), “Xatti Boburiy”, “Harb ishi”, Aruz haqidagi risolalasi esa islam qonunshunosligi, she’riyat va til nazariyasi sohalariga munosib hissa bo‘lib qo‘shtidi.

Mamun akademiyasining barpo etilishida Xorazmshox Ma`muniylar sulolasing, ikkinchi uyg`onish davrida esa buyuk bobomiz Amir Temurning va Temuriy avlodlarning hissasi beqiyosdir. Har ikkala sulola hukumdorlari o‘z davrining yorqin istedodlarini, olimlarini davlat qanoti ostiga to`plagan va g`amxo`rlik qilib, kerakli shart sharoitlarni yaratib bergani uchun tarixan qisqa davr ichida ona yurtimiz dunyo ilm faniga poydevor bo`lgulik buyuk kashfiyotlarni yaratdilar.

JADIDLAR; Har bir davrda va millatning har bir farzandi ruhida boqiy yashab kelayotgan, Vatanning mustabidlar zulmidan ozod bo‘lishini, elga erk, hurriyat istagan xalqimizning qalbi uyg‘oq farzandlari bo‘lmish jadidlar hamisha fikru yodimizni egallaydi. Bu millat oydinlari tarixini, hayoti va faoliyatini o‘rganganimiz sari ular barhayot bo‘laveradi, yuraklarimizni bir chetini tirnayotgan armonlar qayta gavdalananadi. Ko‘z o‘ngimizda turgan haqiqat go‘yoki ularni qaytarib olish mumkindek katta umidlar

beradi.Ruhan tirik jadid ajdodlarimizning alamlı dardları, avlodlarimiz tomirlarida oqayotgan ma'rifatparvarlarning qonli vasiyatları, tillarda qotib qolgan Vatan hasratları xayollardan tasvirlarga, o'ylardan kitoblarga, odamlardan olamlarga ko'chaveradi, кўчаверади...100-yillar o'tsa hamki milliy o'zlik tarixi, mustaqil millat, mustaqil yurt, mustaqil mafkura haqiqati yolqinlanaveradi.To'g'ri, ularning quchib yig'laydigan qabrlari yo'q – yo'qotilgan, izlari yo'q – o'chirilgan. Lekin jadidlar yashaydigan qalblar bor — so'nmaydigan, ma'rifatga tashna jadidchi izdoshlar bor — ahididan qaytmaydigan, jadidona adabiyot xazinasi bor — to'lg'onib, talpinib o'qiladigan, demakki, ular o'limgan — ular biz o'qigan sahifalarda qayta yaralmoqda.

Mahmudxo'ja Behbudiy;

U 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida muftiy oilasida dunyoga keldi.Mahmudxo'ja Behbudiy - buyuk ma'rifatparvar, yozuvchi, publitsist, dramaturg va jamoat arbobi, jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri.U bir qator Sharq va G'arb tillari bilan yuksak madaniyat sohibi bo'lishi bilan birga, umuminsoniy madaniyatning tolmas targ'ibotchisi ham bo'lgan.

Samarqanda “**Samarqand**” gazetasi, “**Oyna**” jurnaliga asos soladi. Shuningdek, Behbudiy o'zbek va fors tojik tillarida ikki yuzdan ortiq maqola va asarlar yaratgan. Jumladan, “**Risolai asbobi savod**”(“**Savod chiqarish kitobi**”, 1904), “**Risolai jug'rofiyai umroniy**”(“**Aholi geografiyasiga kirish**”, 1905), “**Muntaxabi jug'rofiyai umumiyy**” (“**Qisqacha umumiyy geografiya**”, 1903), “**Kitob-ul-atfol**” (“**Bolalar xati**”, 1904), “**Muxtarasi tarixi islom**”-“**Qisqacha islom tarixi**”(1904). “**Amaliyoti islom**” (1905), “**Rusyaning qisqacha geografiyasi**” (1908) kabi darslik va kitoblar yozgan. Uning 1901-yildan boshlab “Turkiston viloyatining gazeti”, “Taraqqiy”, “Xurriyat”, “Turon”, “Sadoi Turkiston”, “Najot”, “Mehnatkashlar tovushi”, “Tirik so'z”, “Vaqt”, “Samarqand”, “Oyna” kabi gazeta va jurnallarda chop etilgan maqolalari esa taraqqiyparvar kishilar va ayniqsa, yoshlarning diqqat-e'tiborini qozongan.

Behbudiy – yozuvchi, adib sifatida “Padarkush” dramasini yaratgan. 1913-yilda Samarqand shahrida nashr etilgan bu dramada u yoshlarning (ular xoh kambag'al, xoh badavlat oilaga mansub bo'lsin) ilmli, madaniyatlil bo'lishlari lozimligini qayd etgan.O'zbek dramaturgiyasiga, umuman, teatriga poydevor qo'ygan bu asar o'z davrida Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov” dramasi , Mirmuhsin Fikriyning “Befarzand Ochילדiboy”, Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Yangi saodat” kabi qissalarining yaratilishiga turtki bergan.O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng,

barcha jadid bobolarimiz singari Mahmudxo‘ja Behbudiyning ham muborak nomi qayta tiklandi.

Abdulhamid Cho‘lpon;

Cho‘lponning adabiy merosi she’riyat, nasr, dramaturgiya, publitsistik va adabiy tanqidiy maqolalar hamda tarjimadan iborat. Tarixiy davr va tarixiy sharoit Cho‘lpondan muhabbat va tabiat lirikasidan ko‘ra shu davrdagi o‘zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy ahvolini yaxshilashga qaratilgan asarlar yozishni taqozo etdi. ning eng mashhur asarlaridan biri bu Kecha va kunduz romanidir. Cho‘lpon „Sadoi Turkiston“ gazetasida dastlabki „Turkistonli qardoshlarimizga“ she’ri, „Qurbanı jaholat“, „Do‘xtir Muhammadyor“ hikoyalari va „Adabiyot nadir?“, „Muhtaram Yozg‘uvchilarimizga“ maqolasini e’lon qilib (1914), shu davr adabiyoti namoyandalari safidan o‘rin egallagan. Turkiston aholisining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy qoloqlik sharoitida yashayotganining asosiy sababini Rossiyaning mustamlakachilik siyosatida ko‘rgan Cho‘lpon boshqa jadidlar qatori o‘z asarları bilan xalqning madaniy va ma’rifiy saviyasini ko‘tarishga kirishgan. Cho‘lpon Turkiston muxtoriyati hukumatining barpo etilishida faol ishtirok etib, muxtoriyatni sharaflovchi „Ozod turk bayrami“ she’rini yozdi va bu she’r o‘zbek davlatchiligi tarixida ilk madhiya bo‘ldi.

Abdulla Avloniy.

Abdulla Avloniy 1878-yilning 12-iyulida Toshkentda Mergancha mahallasida tug‘ilgan.

O‘z asarlarida zamonasidagi qoloqlikni, johillikni tanqid qilgan va kishilarni bilimga, ma’rifatga chaqirgan yana bir buyuk allomamiz. U ta’lim sohasida maktab o‘quvchilari uchun «Birinchi muallim», «Ikkinci muallim» (1912), «Tarix», «Turkiy Guliston yoki axloq» (1913) kabi zamonasi uchun hodisa bo‘lgan darsliklarni yozgan. 1895 yildan ijodiy faoliyati boshlangan Avloniy «Qobil», «Shuhrat», «Hijron», «Avloniy», «Surayyo», «Abulfayz», «Indamas» taxalluslari bilan she’r, hikoya, feleton va kichik hajmli dramatik asarlar yaratgan. Abdulla Avloniy 1917 yilgacha mahalliy xalq orasidan yetishib chiqqan noshir va jurnalist sifatida Toshkentda «Shuhrat», «Osiyo» kabi gazetalarni tashkil etadi.

Munavvar qori Abdurashidxonov 1878-yili Toshkent shahar Shayx Xovandi Tahur dahasi “Darxon” mahallasida ziyoli oilada dunyoga keldi. Otasi Abdurashidxon Sotiboldixon Olimxon o‘g‘lidir. U o‘zi yashab turgan mahalladagi Eshonquli dodxoh madrasasida va o‘z hovlisida maktab ochib, 40 nafar o‘quvchiga dars bergen. Onasi Toshkentning mashhur ziyorolaridan Xonxo‘ja Shorahimxo‘jayevning qizi (1841–1941) Kosiyat otin (1845–1931) ham o‘qituchi bo‘lib, o‘z hovlisida mahalladagi xotin-qizlarni o‘qitgan.

Munavvarqori bir qancha darslik muallifidir. Uning “Adibi avval” (1907), “Adib us-soniy” (1907), “Usuli hisob”, “Tarixi qavm turk”, “Tajvid” (1911), “Havoyiji diniya”, “Tarixi anbiyo”, “Tarixi islomiya” (1912), “Yer yuzi” (1916 – 17), 4 qismdan iborat

“O‘zbekcha til saboqligi” (Shorasul Zunnun va Qayum Ramazon bilan birga, 1925–26, 4-qismi musodara qilingan) darsliklari bir necha marta chop etilgan. 1914-yili taraqqiyatparvar o‘zbek shoirlarining she’rlarini jamlab, “Sabzavor” nomi bilan nashr etgan.

Munavvarqori ijtimoiy-pedagogik faoliyat bilan birga badiiy ijod bilan ham shug‘ullangan. Uning birinchi hikoyasi “Sadoyi Turkiston” gazetasida “Kichkina felyeton” ruknida chop etilgan bo‘lib, “Bizda hamiyat” deb ataladi. U negadir “Muharram” taxallusini qo‘ygan. Shuningdek, uning “Bizda hamiyat”, “Tug‘ishganlik sevgisi”, “Devpechak”, “Qullikka qanday tushdi?” kabi hikoyalari “O‘zi ham tor edi”, “Yalqovlik yovimizdir”, “Har kim ekkanini o‘rar”, “Himmatli faqir” kabi she’rlari ham matbuotda e’lon qilingan.

Abdulla Qodiriy.

Abdulla Qodiriy 1894 yilda Toshkent shahrida tug‘ilgan. o‘zining mahoratli asarlari orqali milliy ruhni uyg‘otishga xizmat qilgan buyuk yozuvchilardan biridir. o‘zbek adabiyotining klassik namoyandası, romançılıkning asoschisi va ma’rifatparvar yozuvchi. U milliy adabiyot va madaniyatning rivojlanishida katta rol o‘ynagan. Uning asarlarida milliy o‘zlik, axloq, muhabbat va ozodlik g‘oyalari keng yoritilgan. 20-yillardagi muhim ijtimoiy-madaniy jarayonlarning faol ishtirokchisi. "O‘tgan kunlar", "Mehrobdan chayon" romanlari o‘zbek adabiyotidagi birinchi tarixiy-romantik romanlar hisoblanadi. Asar XIX asr oxiridagi o‘zbek xalqining hayoti, urch-odatlari va muhabbat mavzusiga bag‘ishlangan. Bu romanlar milliy o‘zlikni anglash va tarixiy xotirani tiklashda muhim rol o‘ynadi.

Muhtaram Prezidentimizning sa’y-harakatlari bilan O‘zbekiston Oliy sudi tomonidan 1030 dan ziyod mustabid tuzum qatag‘oniga uchragan vatandoshlarimiz nomi oqlanib, tarixiy adolat qad rostladi va minglab jadidlar avlodlari qalbini yaralagan dog‘lar bitdi

Zero, Yangi O‘zbekistonda inson qadri ulug‘lanadigan adolatli, erkin va obod jamiyat, xalqparvar davlat, farovon hayot barpo etishga qaratilgan islohotlarimiz jadid bobolarimizning ezgu g‘oya va dasturlariga har jihatdan uyg‘un va hamohangdir.

Uchinchi renessanas: Bugun O`zbekistonda ta` ilm, Ilm-fan taraqqiyoti uchun yaratilayotgan imkoniyat natijasida hozirgi O`zbekiston yoshlari uchinchi renessansning poydevori bo`lishi shubhasiz.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning davlat rahbari sifatida asosiy siyosiy islohatlarning bosh maqsadi Ozbekistonni rivojlangan, har tamonlama ilg‘or mamlakatga aylantirish bo‘lib, jadal islohatlar,ilm-marifat va innovatsiyalar bunga erishish yoli sifatida tanlangan.Jonajon Ozbekistonimizda islohatlar shiddatli tus olgani, jamiyatda kuzatilayotgan yangilanishlar,ilm fanga chanqoq yoshlarimiz xalqaro

darajada qolga kiritayotgan yutuqlari yurtimizda yana bir uygonish ruhi keza boshlaganidan darak berayotir. Shu manoda, Uchinchi Renesans uzoq istiqbolda emas, aksincha, bizning zamonamizda roy berishidan umidvormiz. Davlatimiz rahbari takidlaganidek, Biz yurtimizda Uchunchi renesansni barpo etish masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qoyib uni milliy goya darajasiga kotarmoqdamiz. Maktabgacha talimi va maktab talimi, olyi talim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarini bolgusi Renesansning tort uzviy xalqasi, deb bilamiz. Bogcha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-oqituvchilar va ilmiy ziyyolilarimizni esa yangi uygonish davrining tort tayanch ustuni, deb bilamiz. Uchinchi Renessans sari intilayotgan Ozbekistonda iqtidorli farzandlar salohiyatini yuzaga chiqarish va tarbiyalash borasida alohida tizim yuzaga keldi. Prezident, ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari bu tizimning muhim qismi bolib qoldi. Jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yonalishi boyicha Muhammad al-Xorazmiy maktabi, Abu Ali ibn Sino nomidagi yosh biologlar va kimyogarlar ixtisoslashtirilgan maktab-internati, Ogahiy, Ishoqxon Ibrat, Abdulla Qodiriy, Hamid Olimjon va Zulfiya, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Halima Xudoyberdiyeva, Muhammad Yusuf, Ibroyim Yusupov nomli ijod maktablari istedodli va ijodkor yoshlarga talim-tarbiya berib kelmoqda. Keyingi davrlarga kelib ixtisoslashgan maktablarning har bir tumanda ochilganligi esa chekka hududlardagi iqtidor egalarini aniqlash va bilim olishlari uchun yetarli sharoitlar yaratib berish imkonini berdi va yaratilayotgan bunday imkoniyatlar oz natijasini ko`rsatmasdan qolmaydi. Bunga misol qilib 2023-2024-oquv yilida maktab oquvchilari tomonidan xalqaro fan olimpiadalarida 122 ta medalni qolga kiritganligi quvonarli hol, albatta. Shu bilan birgalikda Prezident maktabi bitiruvchilarining barchasi Ielts darajalariga, 80 foizi SAT darajalariga ega bolishyapti. Xalqaro fan olimpiadalarda faxrli orinlarni qolga kiritgan yoshlарimizni yutuqlarini sanab oxiriga yetib bolmaydi. Ularni bu kun dunyo tan olmoqda.

Yurtimiz kelajagi bo`lgan yoshlari uchun yana bir imkoniyat 2025/2026 o`quv yilidan Al-Beruniy nomidagi xalqaro maktab-internat faoliyati yo`lga qo`yiladi. Maktab bitiruvchilariga shahodatnomalar va xorijiy oliygoohlarga kirish imkonini beruvchi xalqaro ta`lim dasturi diplomi beriladi. Maktab bitiruvchilarini nafaqat davlat namunasidagi attestat, balki nufuzli xalqaro ta`lim dasturi International Baccalaureate (IB) diplomiga ham ega bo`ladi, bu esa ularning dunyoning yetakchi universitetlariga kirish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi.

Qolaversa, ularning xorijda o`qishi uchun kvotalar ajratiladi. Davlatimiz rahbarining “prezidentning iqtidorli farzandlari” tashabbusini amalga oshirish to`g`risidagi farmoni bilan Ixtisoslashtirilgan ta`lim muassasalari agentligi tizimida Al Beruniy nomidagi xalqaro maktab-internatni tashkil etiladi.

Farmonga ko`ra, 2027-yildan har yili “Yorqin iste`dod” loyihasini amalga oshirish uchun nazarda tutilgan mablag`lar hisobidan maktab bitiruvchilarining xorijiy ta`lim tashkilotlarida ta`lim olishi uchun 200 tadan kvota ajratiladi. Al-Beruniy xalqaro

maktab-internatining ochilishi O‘zbekiston ta’lim tizimini rivojlantirishda muhim qadam bo‘lib, iqtidorli yoshlar uchun yangi istiqbollar ochadi.

Bugun Ahmad Al Farg`oniy nomidagi xalqaro Fizika olimpiadasi, kelgusida Abu Rayxon Beruniy nomidagi xalqaro kimyo olimpiadasi, Abu Ali Ibn Sino nomidagi xalqaro biologiya olimpiadasi ,Al-Xorazmiy nomidagi xalqaro matematika olimpiadasi O‘zbekistonda tashkil etiladi.O`zbekiston hamisha ilm-fan vakillarini chorlab kelgan.

Sport sohasida qolga kiritilgan yutuqlar ham talaygina. Jahon olimpiadasida sportchilarimiz umumjamoa hisobida eng yaxshi natijalarini qolga kiritgani, Ozbekiston bayrogining jahon arenalarida bir necha bor kotarilishiga sabab boldi. yurtimiz iftoxoriga aylangan koplab sportchilarimiz qatori Bahodir Jalolov, Hasanboy Do’smatov, Asadxo‘ja Mo‘ydinxo‘jayev, Lazizbek Mullajonov, Abdumalik Xaloqov, Diyora Keldiyorova, Asila Mirzayorova, Nurxon Qurbonovani hamda O‘zbekiston shaxmati tarixida birinchi marta “Top-100” talikka birdaniga 4 ta o‘zbek Nodirbek Abdusattorov , Rustam Kasimdjanov , Nodirbek Yakubboyev , Javohir Sindarovlarning kiritilgani Ozbekistonni dunyoda o`z ornini yana bir bor korsatib qoydi.

Bu singari olib borilayotgan ishlardan ko`zlangan asosiy maqsad ham Uchinchi `Renessans poydevorini yaratish, mamlakatimiz dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari qatoriga chiqishida intellektual va manaviy yetuk, tashabbuskor yoshlarni tarbiyalashdan iborat. Ozbekistonda jamiyatning eng faol qatlami sifatida etirof etiluvchi yosh avlodga ertangi taraqqiyotni ta`minlovchi katta kuch, davlatning strategik resursi sifatida qaralmoqda. Natijada yuksak bilimli, gayrat-shijoatli, mustaqil va zamonaviy fikrlaydigan hamda qatiy pozitsiyaga ega yoshlar hal qiluvchi kuchga aylanib bormoqda.

Tibbiyot; Bugun salomatlikni asrash barchamiz uchun eng muhim masalalardan biriga aylangan. Shu jihatdan, aholining tibbiy madaniyatini oshirish, odamlar o’rtasida sog’lom turmush tarzi tamoyillarini keng targ’ib etish nafaqat tibbiyot sohasi, balki butun jamiyatimiz oldidagi dolzarb vazifadir. Sohada avvalam bor malakali kadrlarni kopaytirib zamonaviy tibbiyot uskunalarini, dori-darmonlar, qulay shart-sharoitlarni yaratish ishlari amalga oshirildi. Barcha qulayliklarga ega bo`lgan zamonaviy talablarga javob beradigan tibbiyot maskanlari xalqimiz salomatligi yo`lida tunu kun xizmat ko`rsatib kelmoqda.,

Xalqimiz turmush tarzi haqida gap borganida, so’nggi yillardagi imkoniyatlar, o’zgarishlarni tilga olmaslikning iloji yo’q. Prezidentimiz tashabbusi va talabi bilan odamlarni rozi qilishga qaratilgan ishlar har bir mahalla, xonadonlarga kirib bordi. Hech bir inson e’tibordan chetda qolmadı. Kam ta’minlangan oilalar uchun Temir daftari, Ayollar daftari, Yoshlar daftari singari samarali tizimlar joriy etildi. Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak, degan ezgu tamoyil asosida barcha idora-tashkilotlar fuqarolarning dardiga quloq tutidigan, ularni

tinglaydigan bo'ldi. Mamlakat iqtisodiyotidagi o'sish ko'rsatkichlari odamlar turmush sharoitida o'z aksini topa boshladi.

Inson qadri Ozbekistonda inson huquq va erkinliklari, qonun ustuvorligi, ochiqlik va oshkoraliq, so`z erkinligi, majburiy mehnatga chek qoyish va ochiq siyosat yuritish boyicha erishilgan yutuqlarni bugun xalqaro hamjamiyat alohida etirof etmoqda.

Albatta, bunga oz-ozidan erishilgani yoq. Prezidentimiz qayerga bormasin, aholi bilan uchrashib, ularning xohish-istiklari, qiziqishlari, duch kelayotgan muammolariga alohida etibor berdi, mahallama-mahalla yurib, odamlarning dardu tashvishini eshitdi. Shu orqali odamlar qalbiga yol topildi. Natijada odamlarning ruhiyatida katta ozgarish yuz berdi. Fuqarolarning ijtimoiy faolligi ortdi, siyosiy xabardorlik darajasi kotarildi. Ilgari tarixda bolmagan sektorlar tizimi joriy qilinishi esa davlat organlarini aholi bilan yanada yaqinlashtirish, xalq bilan tizimli muloqotni yolga qoyishda muhim omil bolmoqda. Jamiatda kambagallik va ishsizlikka barham berishni kozda tutuvchi, aholining eng qiyalgan, sharoiti ogir qatlamini qamrab oluvchi Temir daftar, Ayollar daftari, Yoshlar daftarlari joriy etilib, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari tizimli qollab-quvvatlanmoqda. Uy-joyga muhtoj on minglab yurtdoshlarimiz oz boshpanalariga ega bolib, baxtiyor turmush kechirishmoqda. Turli byurokratik tosiqlarga barham berilib, koplab qulayliklar yaratilmoqda. Yoshlar, xotin-qizlar, nogironligi bor shaxslarga ham katta imtiyoz va imkoniyatlar berilmoqda.

Zero, muhtaram prezidentimiz takidlaganidek: Bugungi kunda kop millatli xalqimiz, Vatanimiz taraqqiyoti uchun, Ozbekistonning yangi Uygonish davrini yaratish yoldida belni mahkam boglab, fidokorona mehnat qilmoqda. Bu yolda ulkan orzu-umidlar, katta rejalar bilan safimizga qoshilayotgan yoshlarimiz- asosiy tayanchimiz va suyanchimizdir.

Uchinchi Renessans g'oyasi milliy ruhiyatimizga, xalqimiz armon-orzusiga yaqin. Zotan, xalq ilgari oqqan daryosi yana oqishini astoydil istaydi.